

OFITSERNING PEDAGOGIK AXLOQI

Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxasislarni tayyorlash
markazi Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o'qituvchisi*

ahmedovbahtier293@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola barcha toifadagi komandirlarning o'z pedagogik mahoratini oshirish bo'ysinuvidagi shaxsiy tarkibini o'tish daomida pedagogik odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilishi borasidagi ayrim ko'rsatmalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Komandirlar, bo'sinuvchilar, harbiy ta'lim-tarbiya, odob-axloq, harbiy pedagogika, pedagogik ta'lim, pedagogik tarbiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЭТИКА ОФИЦЕРА

Ахмедов Бахтиёр Шодиёрович

*Преподаватель цикла гуманитарных и социальных наук Центра
подготовки младших специалистов Вооруженных Сил Республики
Узбекистан*

ahmedovbahtier293@gmail.com

Аннотация: В данной статье содержатся некоторые указания о том, как строго соблюдать правила педагогического этикета командирам всех категорий для совершенствования своего педагогического мастерства при передаче личного состава подчинённым.

Ключевые слова: Командиры, подчиненные, военное образование, мораль, военная педагогика, педагогическое образование, педагогическое образование.

OFFICER'S PEDAGOGICAL ETHICS

**LECTURER OF THE CYCLE OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
OF THE TRAINING CENTER FOR JUNIOR SPECIALISTS OF THE ARMED
FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Akhmedov Bakhtiyor Shodierovich

ahmedovbahtier293@gmail.com

Abstract: *This article contains some instructions on how to strictly adhere to the rules of pedagogical etiquette for commanders of all categories to improve their pedagogical skills during the transfer of personnel under their subordinates.*

Key words: *Commanders, subordinates, military education, morals, military pedagogy, pedagogical education, pedagogical education.*

Professional pedagogik axloq, shaxsning axloqiy ongi singari, axloqiy bilimlarni egallash asosida hosil bo'ladi. Pedagogning kasb axloqi uning hissiy kechinmalari, axloqiy ideallari va e'tiqodi bilan uzviy birlikda yaxlit holda shakllanadi. Pedagogik faoliyat va pedagogik ong bilan chambarchas bog'liq bo'lgan axloqiy bilimlar, axloqiy his-tuyg'ular, axloqiy e'tiqod pedagog odobining tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Axloqqa oid bilimlar jamoada odamlar xulqini tartibga soluvchi axloqiy tushunchalar, tamoyillar, talablar, qoidalaridan iboratdir. Kishining axloqqa doir bilimlari to'la yoki chala bo'lishi mumkin. Axloqiy bilimlar o'zgaruvchandir. Ta'lim-tarbiya jarayonida, mustaqil tarbiya va mustaqil ta'lim olish vaqtida ayrim axloqiy tasavvurlar, qarashlar o'zgarishi mumkin. Masalan, mustaqillik tufayli O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar ta'sirida kishilarimizning axloqqa doir tushunchalari, qarashlarida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Qur'oni Karim, Hadislarning o'zbek tilida chop etilishi, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar, davlat arboblari asarlarining nashr etilishi natijasida kishilarda, ayniqsa yoshlarda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yangi axloqiy tushunchalar, axloqiy qarashlar, bilimlar shakllanmoqda.

Ta'lim-tarbiya ishining, pedagogik faoliyatning axloqiy asoslarini tushunish, yaxshilik, adolat, mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlarni anglash O'zbekistonda ro'y berayotgan mafkuraviy o'zgarishlar, umuminsoniy va milliy-axloqiy talablarni o'zlashtirib olishga ko'maklashadi.

Ofitserga nisbatan qo'yiladigan axloqiy talablar jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy odatlarga, pedagoglik burchiga, umumharbiy nizomlar talablariga mos kelishi lozim. Pedagogik odob qoidalarida ofitserning o'z xizmatdoshlari, boshliqlari, bo'ysunuvchilari, ota-onalar, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, jamoatchilik vakillariga munosabati, muomalasi, uning xatti-harakatlariga doir yo'l-yo'riqlar ifodalanadi.

Pedagogik jarayon muayyan bir vaziyatda amalga oshiriladi. Ana shu vaziyat xarakteridan, shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda pedagog odobining talab va qoidalari bajariladi, ofitserning pedagogik takti namoyon bo'ladi.

Ofitserda axloqiy bilimlar hosil bo'lishining asosiy yo'llaridan biri kasbiy, umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlarni bilib, anglab olishdir. Vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalmilalchilik kabi axloqiy tamoyillar pedagogik odobda ofitser faoliyati bilan bog'liq tarzda axloqiy talablarga aylanadi va pedagogning xulqini, xatti-

harakatlarini tartibga solib turadi. Shu bilan birga ofitserning odob madaniyati, axloqiy his-tuyg'ulari bo'ysunuvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning kuchli vositasidir.

Xulqiy odatlar, axloqiy qarashlar kishining his-tuyg'usi bilan chambarchas bog'liq. Axloqiy his-tuyg'ular hushyorlikni oshiradi, olijanob insoniy xatti-harakatlarni jonlantiradi va aksincha, pedagogning loqaydligi, befarosatligi bo'ysunuvchilarda ba'zi illatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Kishi o'z faoliyati va xatti-harakatlarida qalb da'vatiga binoan qat'iy amal qiladigan, uning ongidan chuqur o'rin olgan axloqiy bilimlar va qarashlar majmui axloqiy e'tiqod hisoblanadi. Odam hamma vaqt ham o'z tasavvur va tushunchalari – bilimlariga mos harakat qilavermaydi. Buning uchun ma'lum bir shart-sharoitlar, e'tiqod kerak. Agar axloqiy bilimlar kishining e'tiqodiga aylangan bo'lsagina uning xatti-harakatlarini boshqaradi.

Harbiy pedagogning axloqiy e'tiqodi bu uning axloqiy bilim va qarashlari jamiyatga, o'z kasbiga, boshliqlari va bo'ysunuvchilari, xizmatdoshlari, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, ota-onalar, jamoatchilik vakillariga munosabatida, ta'lim-tarbiya vazifalarini bajarishda xulqining qat'iy qonun-qoidasiga aylanishidir.

Pedagoglik faoliyati ofitserdan faollikni talab etadi. U jamiyatda, tevarak atrofda, jamoada sodir bo'layotgan faktlar, voqea-hodisalarga befarq qarab turolmaydi. O'z bo'ysunuvchilarini bu hodisalardan xabardor qilishi, voqealarning mohiyati, sabablarini tushuntirib, ularni to'g'ri yo'lga, shaxs, jamoa va jamiyat uchun foydali ishlarga yo'naltirishi lozim. Buning uchun pedagogda axloqiy e'tiqod rivojlangan bo'lishi zarur.

Axloqiy bilim va qarashlar amaliy faoliyat jarayonida ob'ektiv sharoitlar ta'sirida pedagogning e'tiqodiga aylanadi. Bilimlar, qarashlar va e'tiqod bir zamindan o'sib chiqadi, ular axloqiy baholash, axloqiy tamoyillar, talablar, qonun-qoidalar bilan uzviy bog'liqdir. Bilim va qarashlar o'zgaruvchan bo'ladi. Axloqiy bilim va qarashlar his-tuyg'ular vositasida shaxsning ehtiyoj va manfaatlariga mos ravishda barqarorlashsagina e'tiqodga aylanadi.

Olimlarning ta'kidlashiga ko'ra, ikki turdagi e'tiqod mavjud. Biri – ko'r-ko'rona ishonishga asoslanadigan e'tiqod. Bu johil kishilarga, fanatiklarga ko'proq xosdir. Ikkinchisi esa umuminsoniy, milliy-axloqiy va kasbiy ideallarning ijtimoiy qimmatini aql-idrok bilan anglab yetishga asoslangan e'tiqoddir. Pedagog ongida barqaror shakllangan axloqiy e'tiqod professional fazilat darajasiga yetadi. E'tiqodli tarbiyachi ofitser ko'zlagan pedagogik maqsadga erishish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, to'siqlardan cho'chimaydi, ularni aql va sabot bilan bartaraf etadi. Odatda, bunday ofitser pedagogik faoliyatda tashabbuskor va tashkilotchi bo'ladi.

Ongli ravishda hosil qilingan, umuminsoniy va milliy-axloqiy qadriyatlarga mos keladigan, printsiptiallik va o'z-o'ziga nisbatan talabchanlikka asoslangan e'tiqodgina pedagogik odob talablariga mos keladi.

Axloqiy bilimlar va axloqiy qarashlar kishining tashqi muhitdan, jamiyatdan olgan va tartibga solingan axborotlaridir. Axloqiy e'tiqod esa tartibga keltirilgan axborotlar bilan birga xatti-harakatning mo'ljallangan, nazarda tutilgan andazasi hamdir. Axloqiy e'tiqod axloqiy tajriba asosida shakllanadi.

Axloqiy yo'l-yo'riqlarni belgilashning muhim faktori bo'ysunuvchilarga yaxshi xulq-odatlarni amalda ko'rsatish va so'z orqali ta'sir etishdir. Bo'ysunuvchiga so'zdan ko'ra, eshitganlaridan ko'ra ko'rilgan va his etilgan narsalar ko'proq ta'sir o'tkazadi. Odatda, ofitserlar axloqiy tarbiyada ko'proq so'z bilan ta'sir etish vositasidan foydalanadilar. Bu esa hamma vaqt ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuning uchun ham aytilayotgan gaplarni ko'rsatmali misollar bilan to'ldirish lozim. Aytilayotgan so'zlar ofitserning bajarayotgan ishi va xulqiga mos kelishi kerak.

Axloqiy ideal axloqiy e'tiqodning asosini tashkil etadi. Pedagog odobida axloqiy ideal tarbiyachi ofitser shaxsining yuksak axloqiy fazilatlari haqidagi g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, uning ta'lim-tarbiya jarayonidagi xatti-harakatlarini pedagoglik burchini anglash asosida tartibga soladi va bo'ysunuvchilarni barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Axloqiy idealda jamiyatning ofitserga qo'yadigan talablari aks etadi. Bu talablar pedagoglik burchini samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Axloqiy idealni o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ofitser erishishi lozim bo'lgan maqsadni ham nazarda tutadi. Axloqiy ideal kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi, shu bilan birga u real borliqqa ham asoslanadi. Turmushdan ajralib qolgan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va istiqbollarni e'tiborga olmaydigan ideallar insonning faoliyati uchun yo'llanma bo'la olmaydi, u xom hayol, fantaziya bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgust kunidagi 3898-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori.
2. "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy nizomlari". Toshkent, "O'zbekiston", 1996 yil.
3. A.Avloniy. "Turkiy guliston yohud ahloq". Toshkent. "O'zbekiston", 1994 yil.
4. B.Ziyomuxammedov, Sh.Abdullaeva. "Pedagogika". Toshkent. "O'zbekiston", 2000 yil.
5. A.Sotib Oldiyev, A.Karimjonov. "Harbiy pedagogika". Toshkent. "Sharq", 2005 yil.